МП-4


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

10. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.: "O'zbekiston", 2017 y.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi tug'risida"gi Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasining "Yongin xavfsizligi tug'risida"gi Qonuni, 30.09.2009 yil. №URK-226

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PK-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari tug'risida"gi Qarori.


### 4.3. Internet saytlari


14.www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.

15.www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

16.www.mintrud.uz - Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.

17.www.bilim.uz- OUMTV sayti


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

№ 209
"29" 08 2022 y.

"Tasdiqlayman"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
O.N.Bozorov
"___" ______ 2022 y.

# "AVARIYA QUTQARUV ISHLARI" FANINING

## ISHCHI O'QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 1010000 | - | Xizmatlar ko'rsatish sohasi |
| Ta'lim sohasi: | 1020000 | - | Gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi |
| Ta'lim yo'nalishi: | 5640200 | - | Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi |

"Avariya qutqaruv ishlari" fani bo'yicha 5640200 -"Mehnatni muhofazasi va texnika xavfsizligi" ta'lim yo'nalashi uchun soatlar taqsimoti

| | |
|---|---|
| Umumiy o'quv soati | 130 soat |
| Shu jumladan: | |
| Ma'ruza | 28 soat |
| Amaliy mashg'uotlar | 30 soat |
| Semenar | 14 soat |
| Mustaqil ta'lim | 58 soat |

Qarshi-2022

Fanning ishchi o'quv dasturi, Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 4 oktyabdagi 892- sonli buyrugining bilan tasdiqlangangan fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar : N. Maxmatqulov- QarMII "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasi yig'ilishida (bayon № 1 , 26.08.2022 y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy komissiyasida (bayon № 1 , 27.08.2022 y.) va institut Uslubiy kengashida (bayon № 1 , 29.08.2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

| | | |
|---|---|---|
| QMII O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i: | ________ | Sh.Turdiyev |
| Fakul'tet uslubiy komissiyasi raisi | ________ | M. G'ofirov |
| "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedra mudiri: | ________ | R.A.Eshonqulov |

# I. KIRISH

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Insoniyat sivilizatsiyasi xar xil tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarda iqtisodiy va ijtimoiy obyektlarni himoya qilish, sanoat xavfsizligini ta'minlash, zararli va xavfli omillardan himoyalanish muammosini hal etish – odamlarni meyoriy sharoitda faoliyat olib borishi, uni o'rab turgan atrof muhitdagi ruxsat etilgan meyoridan ortiq xavfli va zararli omillardan himoya qilish bugungi kunda asosiy muammolardan bir bo'lib qolmoqda.

Ishlab chiqarish obeklaridagi barcha sohalarida ishlayotgan zamonaviy mutaxassislar xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, atrof muhitda bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni anglash, tushinish, oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga tegishli qarorlar qabul qilish uchun yetarli darajada bilim saviyasiga ega bo'lishi lozim. Aynan ushbu bilimni "Avariya qutqaruv ishlari" fani fani o'rganadi.

Ushbu "Avariya qutqaruv ishlari»" fanidan ishchi o'quv dasturi fan bo'yicha davlat ta'lim standarti va namunaviy dastur asosida tuzilib "Mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi" ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Unda fanning maqsad va vazifalari talabalar bilim va ko'nikmasiga bo'lgan talablar, mashg'ulotlarning mavzusi va qisqacha mazmuni, amaliy va semenar mashg'ulotlari uchun zarur texnik vositalar mustaqil ish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiya etilgan adabiyotlar ruyxati keltirilgan.

## 1.1. 0'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

"Avariya qutqaruv ishlari" fani avariyalar va tabiiy ofatlar (zilzilalar, suv toshqinlari, to'fonlar, tog1 ko'chkilari, yong'inlar va boshqa) sodir bulganda, ulardan kelib chiqqan asoratlami bartaraf qilish, har xil noxush tabiiy va iqlimiy sharoitlarda, iqtisodiyot ob'ektlarini barqaror ishlashi masalalarini o'rganadi. Shu bilan bir qatorda insonlami xavf xatarlami oldini olish chora-tadbirlarini olib borish, kechiktirib boimaydigan yordamlami ko'rsatish bo'yicha talabalarga o'rgatishdan iborat.

Ushbu dastur avariyalarni va tabiiy ofatlami oldini olish (ular bilan kurashish va salbiy oqibatlarini kamaytirish) tadbirlari, ular sodir boiganda muxandislik-qutqaruv ishlarini va avariyadan keyin tiklash ishlarini olib borish masalalarini qamrab olgan. Bundan tashqari avariya - qutqaruv ishlarini nefit va gaz olishda, nefit kimyo sanoatida va transport vositalarida olib borish, zararlantirish ishlarini tashkil kilish ko'nikmalari bo'yicha tushuncha beradi.

## 1.2. 0'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fan o'qitilishidan maqsad - texnogen va tabiiy ofatlarni tahlil qilish, ulami oldini olish va avariyalar sodir bulganda tezkor yordam va qutqaruv ishlarini tashkil qilish va olib borilishiga ko'maklashishga o'rgatish, qutqaruv va kechiktirib bulmaydigan avariya tiklash ishlarini olib borish va faoliyat xavfsizligini ta'minlash usullari, ta'lim standartida talab qilingan bilimlar, ko'nikmalar va tajribalar darajasini ta'minlashdir.Fanni o'rganishning vazifalari: xalokatlar va tabiiy ofatlarni o'rganish, avariya holatlarini aniqlash,baxolash, tasniflash va ulami oldini olish yo'llarini

o'rganish, halokatlar holatlarida qutqaruv va evakuatsiya ishlarini (evakuatsiyaqilinganlar uchun lagerlar tashkil qilish va gumanitar yordamini taqsimlash masalarini qamrab olgan holda), avariya - qutqaruv ishlarini iqtisodiyot tarmoqlarining maxsus sharoitlardagi ob'ektlarida portlovchi moddalar, radioaktiv va zaharli himoyalanish, qutqaruv va tiklash ishlarini tashkillashtirish tajribasini o'zlashtirishdir.

## 1.3. Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikmalari va malakalariga qo'yiladigan talablar

Favqulodda vaziyatlarda sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar, avariya va xalokalardan muxofazalanish metodlarini o'rganish, to'g'ri xatti – xarakat kilishni o'rgatishdir. Ushbu maksadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy xodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv xamda ilmiy dunyo karashini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Fan buyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidalar:

*Talaba:*

- favqulodda vaziyatda va fuqaro muhofazasi,sanoat xavfsizligi sohasida qabul qilingan normativ huquqiy xujjatlarning asosiy talablari;
-favqulodda vaziyatda qutqaruv isharini tashkil etish;
- aholi va moddiy moyliklarni evakuatsiya qilish prinsiplari bilishi;
- sanoat xavfsizlikni ta'minlash prinsiplari, uslublari va vositalarini taxdil qilish;
-ishlab chikarishdagi zararli va xavfli manbalari turlari, ularning yuzaga kelishining oldini olish usullari;
- jamoa va shaxsiy ximoya kilish vositalarini ishla olish;
birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish;
-sanoat karxonalarida yong'in xavfsizligi va elektr xavfsizligiga qo'yiladigan talablar bilishi;
-texnika xavfsizligi qoidalari va meyorlari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

## 1.4. Fanining boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqligi

"Sanoat va radiatsiya xavfsizligi" fani "Hayot faoliyati xavfsizligi", "Mehnat muhofazasi", "Fizika","Himiya", "Atrof muhit himoyasi va ekologiya", "Favqulodda vaziyatlar va fuqorolar muhofazasi" kabi fanlar bilan o'zviy bog'langan. Inson o'z faoliyatida bir necha omillar bilan bog'lanadi va o'zaro ta'sirda bo'ladi. Lekin, insoniyatning XX asr sivilizatsiyasida radiatsion nurlar alohida o'rin tutadi.. Chunki bu yangi soha bo'lib iqtisodiyot tarmog'ining barcha sohasida ishlatilmoqda. Shu bilan birga uning inson hayot faoliyati davridagi umumlashgan xavfli va zararli omillari ortib bormoqda.

Avariya qutqaruv ishlari fanini o'rganish nafaqat texnosferada xavflar tug'ilganda, balki ishlab chiqarish jarayonida xavli va zararli omillar ta'sirida kasallanish, zaxarlanishni qisqartirish, baxtsiz hodisalar oldini olish, shuningdek, Biosferada (atrof-muhitda) yuz beradigan insonlar o'limi va moddiy zararlar miqiyosini kamaytirish imkonini beradi.

## 1.5. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturniinter faol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy tiborauditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda obyektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyo qarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning yangi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish, darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalaridan, ma'ruzalar o'qish, elektron plakatlar va internet tarmog'idan foydalaniladi.

"Avariya qutqaruv ishlari"fanini o'qitish jarayonida quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

*Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-* bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi.

*Tizimli yondashuv-*ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam yetmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

*Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv-*shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

*Dialogik yondashuv-*bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsningo'z-o'zini faollashtirishi va o'z – o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

*Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish-*demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

*Muammoli ta'lim-*ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi.

*Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash–*yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish.

*O'qitishning usullari va texnikasi-*ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

*O'qitishni tashkil etish shakllari-* dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

*O'qitish vositalari-* o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruzamatni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

*Monitoring va baholash-*o'quv mashg'ulotida va butun kurs davomida o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib boriladi. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

## II. "AVARIYA QUTQRUV" FANIDAGI MASHG'ULOTLARNING MAVZULAR VA SOATLAR BO'YICHA TAQSIMLANISHI

### 2.1. Ma'ruzalar soatlar bo'yicha taqsimlanishi

| № | Mavzular | Soat |
|---|---|---|
| | **1-modul. Qutqaruv ishlari fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari.** | |
| 1 | **1-mavzu. Qutqaruv ishlari fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Avariya-qutqaruv ishlarini o'tkazishning huquqiy asoslari.** Qutqaruv ishlarining turlari, favqulodda vaziyatlarga kuch va vositalami tayyorlash bo'yicha tadbirlami rejalashtirish va ulardan foydalanish. | 2 |
| | **2-modul. Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tashkillashtirish** | |
| 2 | **2-mavzu. Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tashkillashtirish va o'tkazish asoslari** Avariya-qutqaruv jihozlaridan foydalangan holda avariya-qutqaruv ishlarini amalga oshirish | 2 |
| 3 | **3-mavzu. Avariya qutqaruv ishlari vaqtida boshqaruv asoslari** Qutqaruvchilaming kasbiy tayyorgarligini tashkillashtirish. Qidiruv-qutqaruv ishlarini o'tkazish bo'yicha asosiy texnologiyalar. | 2 |
| 4 | **4-mavzu. Avariyalar turlari (iqtisodiyot ob'ektlarida, transport sistemalarida, va h.k.) ulami kelib chiqish sabablari.** Trasportdagi avariyalar, gidrotexnik inshootdagi avrayalar, kommunal texnik inshootlardigi arariyalar, bino va inshootlarning konstruksiyasi qo'lashi, radiatsion va kimyoviy xavfli obyektlardigi avariyalarning oldini olish chora tadbirlari | 2 |
| | **3-modul. Avariya va halokatlarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar.** | |
| 5 | **5-mavzu. Tabiiy ofatlarni, avariya va halokatlarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar.** Iqtisodiyot ob'ektlaridagi avariyalar va ulami atrof-muhitga ta'siri. Avariya-qutqaruv tuzilmalarini olib borayotgan ishlarini hamjihatligi. Tuzilmalami xatti-harakatini ta'minlash. | 2 |
| 6 | **6-mavzu. Viloyat qidiruv- qutqaruv tuzilmalari** Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi(bo'lim)ga bevosita bo'ysinuvchi, suvdan qo'tqaruv guruhi, avariya qutqaruv guruhi radiatsio-kimyoviy razvedka guruhi faoliyati, viloyat va tuman yig'ma otryadlari, tuman va obyeklardagi fuqaro muhofazasi xizmatlari, mahalla fuqaro yig'inlar xizmatlari. | 2 |
| | **4-modul. Xabar berish va aloqa ishlarini tashkillashtirish.** | |
| 7 | **7-mavzu. Boshqarish, navbatchilik, xabar berish va aloqa ishlarini tashkillashtirish.** Lakol, mahalliy va respublika xabar berish tizimi. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyailar sodir bo'lganda xabar berish usullari vositalari. Avariya va xalokatlar sodir bo'lganda xababr berish tizimi Qutqaruvchi laming harakatlari..Xabar berish turlari va usullari. Ob-havo belgilari.Vaqtinchalik boshpana qurishning texnologiyasi. | 2 |
| 8 | **8-mavzu.Favqulodda vaziyat sodir boigan hududda razvedka ishlarini olib borish.** Favqulodda vaziyatlar zonasini aniqlash, favqulodda vaziyatlar zonasiga chiqish joylarni belgilash. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda razvedka ishlarni olib borish. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda razvedka ishlarni tashkil etish. Ekologik fajiyalarni aniqlash va tahlil qilish | |
| 9 | **9-mavzu.Topografik kartasida ish yuritish. Kompas va undan foydalanish.** Ko'zatish natijasida favqulodda vaziyatlar zonasini topografik xaritaga tushirish. Bashoratlash asosida topogrfik xaritaga tushirish. Razvedka sosida topogrfik xaritaga tushirish. Turar joylardagi halokatlarni bartaraf qilishda qutqaruvchilaming xarakati. Xavfsizlik masalalari. | 2 |
| | **5-modul. Obektlarida sodir bo'lgan avariyalarni bartaraf qilish ishlarinixususiyatlari** | |
| 10 | **10-mavzu. Xavfli suyuqlik va gazsimon mahsulotlami saqlash, transportirovka qilish (uzatish) va qayta ishlash ob'ektlarida sodir bo'lgan avariyalarni bartaraf qilish ishlarini xususiyatlari.** Radiatsion va kimyoviy moddalar tarqalishi xavfi to'g'ilganda xavfsizlik masalalari. Radiatsion va kimyoviy moddalar hududga tarqaganda xavfsizlik masalalari. | 2 |
| 11 | **11-mavzu. O'ta zaharli kimyoviy moddalami ishlab chiqarishda va saqlashda sodir bo'lgan avariyalarni bartaraf qilishda qutqaruvchilaming xarakati.** Radiatsion va kimyoviy moddalar tarqalishi xavfi to'g'ilganda razvedka ishlarini olib borishda xavfsizlik masalalari. Radiatsion va kimyoviy moddalar hududga tarqaganda qutqaruv ishlarini tashkil etishda xavfsizlik masalalari. | 2 |
| 12 | **12-mavzu. Gidrotexnik inshoatlarida kelib chiqqan avariyalarda qutqaruv ishlarini olib borishni xususiyatlari.** Gidrotexnik inshootlar haqida tushuncha. Suv toshqinlari sodir bo'lganda qutqaruv ishlarini tashkil etish. Sel kelgan hududlarda qutqaruv ishlarini tashkil etish Suv ostida qutqaruv ishlarini tashkil qilish asosla | 2 |
| 13 | **13-mavzu.Epidemiya, epizootiya va epifitotiyalar paytida avariya-qutqaruv kuchlari va mablag'larni tashkil qilish va ishlatishni nazorat qilish.** Aholi orasida epedemiya tarqarganda xavfsizlik masalalari. Huddni observatsiya va karantin rejimga o'tkazish masalalari. Hayvonlar orasida yuqimli qkasalliklar taqalishining oldini olish chora tadbirlari. O'simliklar orasida yuqimli qkasalliklar taqalishining oldini olish chora tadbirlari/ Evakuatsiya qilinganlami vaqtinchalik boshpana bilan ta'minlash. | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| 14 | **14-mavzu.Qutqaruvchilani kasbiy o'qitishlarini tashkillashtirishni metodologik asoslari.**<br>Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (bo'lim) ga bevosita bo'ysinuvchi, suvdan qo'tqaruv guruhi, avariya qutqaruv guruhi radiatsion- kimyoviy razvedka guruhini malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi , viloyat va tuman yig'ma otryadlari, tuman va obyeklardagi fuqaro muhofazasi xizmatlarini o'qitish va qayta tayyorlash tartibi , mahalla fuqaro yig'inlar xizmatlari o'qitish va qayta tayyorlash. Aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tartibi. | 2 |
| | **Jami** | **28** |

Ma'ruza mashg'ulotlari multimediya qurilmalar bilan jixozlangan auditoridaakadem guruhlar bilan o'tiladi Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari- aqliy hujum, blits-so'rov, tahlil qilish, "ko'rgazmali ma'ruza", "suhbat", "bahs-munozara", "tushunchalar tahlili", "tarmoqlar", "kichik guruxlarda ishlash", baliq skeleti, BBB jadvali (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim).

### 2. 2. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar ta'lim muassaslari xususiyatidan kelib chiqqan holda turli tabiiy va texnogen tusdagi avariyalar tasnifi, avariya holatlarini oldini olish va unga taktik tayyorgarlik haqida olgan nazariy bilimlarini amaliy mustahkamlashdan iborat.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy royxati:

| № | Amaliy mashg'ulotlar mavzulari | Soat |
|---|---|---|
| 1 | Avariya-qutqaruv ishlarining turlari, favqulodda vaziyatlarga kuch va vositalami tayyorlash bo'yicha tadbirlami rejalashtirish va ulardan foydalanish. | 2 |
| 2 | Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tashkillashtirish va o'tkazish | 2 |
| 3 | Ekstremal holatlarda qutqaruvchilaming yashab qolish asoslari | 2 |
| 4 | Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi kuchlarining tayyorgarligini oshirishda va avariya qutqaruv ishlarini bajarish vaqtida boshqaruv organlarining o'zaro hamkorligini tashkillashtirish | 2 |
| 5 | Avariya-qutqaruv jihozlaridan foydalangan holda avariya-qutqaruv ishlarini amalga oshirish | 2 |
| 6 | Avariya qutqaruv ishlari vaqtida boshqaruv | 2 |
| 7 | Avariya-qutqaruv ishlari vaqtida foydalaniladigan himoya inshootlari | 2 |
| 8 | Avariya qutqaruv ishlari o'tkazish vaqtida qo'llaniladigan texnik vosita | 2 |
| 9 | Favqulodda vaziyatlar vaqtida Avariya qutqaruv ishlari xavfsizligi, xavfsiz sharoitlami ta'minlash usullari | 2 |
| 10 | Avariyalarni holatiga qarab himoya vositalami tanlash (himoya vositalari va x.k), avariya qutqaruv signallarini turlari va belgilari, avariya holatida havoning tarkibida zararli moddalar miqdorini aniqlash. | 2 |
| 11 | Avariya - tiklash ishlarini tashkillashtirish, iqtisodiyot ob'ektlarida favqulodda vaziyatlar oqibatining zarar va talofatlami aniqlash. | 2 |
| 12 | Avariya tiklash ishlarini olib borishda xavfli zonalami aniqlash. | 2 |
| 13 | Avariya-qutqaruv ishlaridako'ngilliklarni o'rni. "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar guruhlarini tuzilishi. | 2 |
| 14 | Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikni usullari, metodlari vashakllari. | 2 |
| 15 | Jalb qilingan kuch va vositalar moddiy va moliyaviy ta'minlash | 2 |
| | **Jami** | **30** |

### 2.3. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar talabalar ta'lim muassaslari xususiyatidan kelib chiqqan holda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlaridan olgan nazariy va amaliy bilimlari asosida tavsiya etilgan mavzularni keng yoritilgan holda o'rganadi:

Seminar mashg'ulotlaming taxminiy royxati:

| № | Semenar mavzulari | Soat |
|---|---|---|
| 1 | Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari | 2 |
| 2 | Qutqaruv xizmatlarini jalb qilish | 2 |
| 3 | Avariyalardan keyingi hududlami barqarorligini ta'minlash | 2 |
| 4 | Katta korxonalarda avariyalari va ulami bartaraf etish | 2 |
| 5 | Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilish | 2 |
| 6 | Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tezkor shtabini funksiyalar | 2 |
| 7 | Xavfli va zararli holatlardan mavjud kuch va vositalaming himoyasini tashkillashtirish. | 2 |
| | **Jami** | **14** |

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini tajribalar orkali yanada boyitadilar. Shuningdek, texnologik jixoz va vositalar, tarkatma materiallardan foydalanish, mavzular bo'yicha takdimotlar va ko'rgazmali roliklar tayyorlash, normativ-hukuqiy xujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

### 2.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'lim ma'ruzalar konspekti va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jumallar va Internet materiallari bilan ishlashni, amaliy ishlarini o'tishda tayyorgarlik ko'rishni, referatlar yozishni, standart talablariga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.

Talaba mustaqil ta'limga tayyorlanishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'yidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

-talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan b o g iiq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;

-faol va muammoli o 'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limlaming taxminiy mavzulari:

1 .Qutqaruvchi maqomini belgilab beradigan muhim normativ-huquqiy hujjatlar va axboriy ma'lumotlar.

2.Avariya qutqaruv ishlari turlarining ro'yxati. Avariya qutqaruv ishlari haqida tushuncha, turlari va tasniflanishi.

3 .O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ulaming oldini olish va harakat qilish davlat tizimining IIVdagi funksional quyi tizimining asosiy vazifalari.

4.Yirik masshtabli favqulodda vaziyatlarni bataraf etish uchun favqulodda vaziyatlar davlat tizimi va fuqaro muhofazasining avariya-qutqaruv kuchlarini guruhlashtirish.

5.Xabarlash vositalari va yashab qolish asoslari. 0'rmonlarda qutqaruvchilaming yashab qolish asoslari.

6.Hamkorlikning mazmuni va unga qo'yiladigan asosiy talablar.

7.Favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish va ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish tartibi.

8.Qurilmalar yordamida vayronalar ostida qolgan insonlami qidirishni tashkillashtirish va unga rahbarlik qilish.

9.Zilzila sodir bo'lgan joyda amalga oshiriladigan Avariya qutqaruv ishlari.

10.Gidrotexnik ob'ektlardagi avariyalar va halokatlarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshiriladigan Avariya qutqaruv ishlari.

1 1.Qidiruv-qutqaruv xizmatlarini tashkil etish tartibi.

12.Himoya inshootlarining turlari.

13.Qidiruv operatsiyalarida vertolyotlardan foydalanish.

14.Qutqaruvchining huquqiy maqomi.

15.Qutqaruvchilaming hayotini saqlash uchun tavakkalchilikni pasaytirish va avariya, buzish-tiklash va boshqa maxsus ishlarning samaradorligini oshirish.

16.Yonayotgan va buzilgan binolaming yuqori qavatlarida va vayronalar ostida qolgan odamlarni qutqarish usul va uslublari.

17.Tabiiy va texnogen xarakterdagi favquloda vaziyatlar sodir bo'lgan joyda avariya qutqaruv ishlarini amalga oshirish.

## III. FAN BO'YICHA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH

Talabalar bilimini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

**Joriy nazorat** - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha. og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

**Oraliq nazorat** – semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va yozma, og'zaki va test shakli bo'lishi mumkin.

**Yakuniy nazorat** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida fakultet Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

***a) 5 ball- uchun talaba-*** to'g'ri va aniq xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

***b) 4 ball uchun talaba-*** mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

***v) 3 ball uchun talaba-*** mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

Talabaningfan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R = V \times Q / 100$$

bnda: V – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); Q - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

## IV. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

### 4.1. Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgust kunidagi "Aholini va hxududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favkulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tug'risida"gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000 yil 26 may kunidagi "Fuqaro muhofazasi tug'risida"gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000 yil 31 avgust kunidagi qabul qilingan "Radiatsiyaviy xavfsizlik tug'risida"gi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabr kunidagi "Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi tug'risida"gi 455-sonli Qarori.

5. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari (meyoriy-huquqiy xujjatlar to'plami). I tom. — 2007 - 328 b.

6. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari (meyoriy-xukukiy xujjatlar to'plami). II tom. -2012.-368 b.

7. O.R.Yuldashev i dr. «Avariyno-spasatelniye raboti». Uchebnoye posobiye,- T.: TITLI, 2008.

8. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma-T.:"Yangi nashr", 2019.-234 b.

### 4.2. Qo'shimcha adabiyotlar

9. Mirziyoyev I.I.I.M Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.